



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI




**Sanoat statistikasi bo'limi
Tel.: 61-222-75-87**

Yanvar


Qoraqalpog'iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi (2022- yil yanvar oyida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar oyida respublika korxonalarini tomonidan 1394,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 101,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 83,7 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Yanvar


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 1,9 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 6,5 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 4,9 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,5 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ni tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab
chiqarishi hajmidagi
ulushi, foizda**




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da




Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar	2022- yil yanvar	Farqi +/-
Ohah tosh, ming t.	17,9	27,5	9,6



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar	2022- yil yanvar	Farqi +/-
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	189,5	134,6	-54,9
Gaz kondensati, ming t.	9,3	7,1	-2,2

Yanvar

Ishlab chiqaradigan sanoat



2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1167,6 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 83,7 % ini tashkil etdi.


2021-yil
yanvar

83,9 %

2022-yil
yanvar

83,7 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,02 % ni (2021- yilning yanvar oyida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 70,2 % (67,0 %), o'rta-quyi texnologiyali – 2,2 % (2,5 %) va quyi texnologiyalisi – 27,6 % (30,4 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 70,3 % (2021- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 105,2 %), oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi – 11,3 % (2021- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 91,1 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,4 % (2021- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 90,0 %), boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 1,8 % (2021- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 87,8 %) tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatda 25,6 ming tonna portlandsement (2021- yilning yanvar oyiga nisbatan 21,7 % ga) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'ati kuzatildi. Shuningdek, 7,3 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (4,4 %), 312,6 ming litr aroq (3,6 %), 1,0 ming tonna kalava ip (11,1 %), 5,9 ming tonna paxta chigiti (16,3 %), 0,2 ming tonna tozalangan o'simlik yog'i (82,7 %) va 0,5 ming tonna tozalangan guruch (44,5 %) ishlab chiqarilib, 2021- yilning mos davriga nisbatan pasayishi kuzatildi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar	2022- yil yanvar	Farqi +/-
Aroq, ming litr 100 % li spirit	324,2	312,6	-11,6
Polietilen, ming t.	31,9	26,8	-5,1
Polipropilen, ming t.	7,6	7,4	-0,2
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	7,7	7,3	-0,4
Paxta tolasi, ming t.	4,0	3,7	-0,3
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	1,3	0,2	-1,1

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 66,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 101,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sano-atdagi ulushi 70,2 % ni, fizik hajm indeksi 105,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 819,3 mld. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar oyida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 89,1 % ni tashkil etgan bo'sha, 2022- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 12,2 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 21,3 mld. so'mni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar oyida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 124,5 % ni tashkil etgan bo'sha, 2022- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 9,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 10,2 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 114,6 mld. so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar oyida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 116,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 106,7 % ni va ishlab chiqarish hajmi 17,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 126,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 11,1 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 167,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 111,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 %, fizik hajm indeksi 100,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 11,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 218,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 15,6 % ini) tashkil etdi. 2022-yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,5 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar	2022- yil yanvar	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	455,4	531,3	75,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	11,7	8,5	-3,2
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	17844,0	19130,2	1286,2

Yanvar

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini) tashkil etdi.



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat
korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar	2022- yil yanvar	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	529,5	539,5	10,0
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	930,3	1315,3	385,0
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	3508,5	4184,3	675,8

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar – 19,3 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 1,9 % ga, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar – 41,4 % ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 152,4 mlrdso'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 83,6 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 10,9 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021-yil
yanvar

66,5 %

2022-yil
yanvar

70,1 %

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021-yil
yanvar

33,5 %

2022-yil
yanvar

29,9 %

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 11,1 % (2021- yil yanvar oyida 9,8 %) ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 20,8 % ni, shuningdek, Taxiatosh tumani 16,0 % ni, Beruniy tumani 9,0 % ni, To'rtko'l tumani 8,7 % ni, Ellikqal'a tumani 8,5 % ni, Amudaryo tumani 6,8 % ni, Taxtako'pir tumani 6,0 % ni, Qo'ng'irot tumani 5,8 % ni, tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati respublika o'sish sur'ati (83,6 %) darajasidan yuqori ko'satkich Mo'ynoq (113,5 %), Amudaryo (105,6 %), Taxiatosh (104,0 %), Shumanay (102,3 %), Ellikqal'a (101,9 %) hamda Beruniy (101,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Yanvar

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 20,8 % ni, shuningdek, Taxiatosh tumani 16,0 % ni, Beruniy tumani 9,0 % ni, To'rtko'l tumani 8,7 % ni, Ellikqal'a tumani 8,5 % ni, Amudaryo tumani 6,8 % ni tashkil etdi.



161,6 mlrd. so'm


2020- yil yanvar

175,4 mlrd. so'm

2021- yil yanvar

152,4 mlrd. so'm

2022- yil yanvar



2020-yil

105,3 %

2021- yil

105,7 %

2022- yil

83,6 %

Yanvar

Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Ellikqal'a tumaniga to'g'ri kelib, 17,2 % ni, shuningdek, Beruniy tumani 13,6 % ni, Nukus shahri 13,1 % ni, Amudaryo tumani 9,7 % ni, To'rtko'l tumani 9,6 % ni hamda Xo'jayli tumani 6,8 % ni tashkil etdi.

67,4 mld. so'm


2020- yil yanvar

55,1 mld. so'm

2021- yil yanvar

45,6 mld. so'm

2022- yil yanvar



Jami iste'mol
mollari ishlab
chiqarish hajmida
nooziq- ovqat
mahsulotlarining
ulushi



Amudaryo	100,7
Beruniy	96,8
Bo'zatov	98,8
Qonliko'l	82,3
Qorao'zak	152,8
Kegeyli	112,0
Qo'ng'irot	64,6
Mo'ynoq	112,2
Nukus t.	114,0
Taxiatosh	70,8
Taxtako'pir	87,5
To'rtko'l	101,1
Xo'jayli	32,5
Chimboy	51,0
Shumanay	154,0
Ellikqal'a	89,8
Nukus sh.	59,1


o'sish sur'ati

mld. so'm

Yanvar

Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 24,1 %, shuningdek, Taxiatoш 20,6 % ni, To'rtko'l 8,4 % ni, Beruniy 7,0 % ni, Taxtako'pir 7,0 % ni, Amudaryo 5,6 % ni ham Qo'ng'irot 5,5 % ni tumanlari tashkil etdi.



94,2 mlrd. so'm



2020- yil yanvar

120,3 mlrd. so'm

2021- yil yanvar

106,8 mlrd. so'm

2022- yil yanvar



Yanvar

Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlari Kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Nukus shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 60,0 %), Taxiatosh (14,9 %), Qo'ng'irot (4,0 %), To'rtko'l (4,0 %), Amudaryo (3,3 %) va Beruniy (3,0 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi

2020- yil

1132,8 mlrd. so'm

2021- yil

1321,8 mlrd. so'm

2022- yil

1394,6 mlrd. so'm



2020- yil


103,5 %

2021- yil

102,7 %

2022- yil


101,3 %



Yanvar

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (2562,7 ming so'm) va Taxiatosh tumanida 2773,0 ming so'm) o'rtacha Respublika darajasi ko'satkichidan (720,3 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'satmoqda.



Qoraqalpog'iston Respublikasi

2020- yil

603,7 ming so'm

2021- yil

689,7 ming so'm

2022- yil

720,3 ming so'm



01

2020- yil

102,0 %

02

2021- yil

101,2 %

03

2022- yil

100,0 %

Yanvar

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Respublika bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 78,7 ming so‘m bo‘lgani holda, Taxiatosh tumanida 325,1 ming so‘mni, Taxtako‘pir tumanida 227,1 ming so‘mni, Mo‘ynoq tumanida 81,0 ming so‘mni va Nukus shahrida 97,1 ming so‘mni tashkil etdi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi

2020- yil

85,8 ming so‘m

2021- yil

91,8 ming so‘m

2022- yil

78,7 ming so‘m



2020- yil

103,8 %

2021- yil

104,2 %

2022- yil

78,7 %

Amudaryo

104,2

51,1

Beruniy

99,8

69,9

Bo‘zatov

88,9

38,8

Qonliko‘l

56,4

37,3

Qorao‘zak

99,2

40,1

Kegeyli

87,0

39,0

Qo‘ng‘irot

98,9

66,8

Mo‘ynoq

111,4

81,0

Nukus t.

99,0

43,8

Taxiatosh

102,8

325,1

Taxtako‘pir

99,8

227,1

To‘rtko‘l

90,9

60,8

Xo‘jayli

23,6

49,6

Chimboy

64,1

60,7

Shumanay

101,6

37,5

Ellikqal‘a

100,2

79,2

Nukus sh.

83,5

97,1


o‘sish sur’ati

ming. so‘m

2022-yil 1-fevral holatiga ko'ra

Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda respublikada 3218 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1566 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiyl sonining 48,7 %) Nukus shahriga 664 tasi (20,8 %), To'rtko'l 321 tasi (10,0 %), Amudaryo 299 tasi (9,3 %), Beruniy 282 tasi (8,8 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



yangi tashkil etilgan
faoliyat yuritayotgan

Jami yangi tashkil etilgan

2020-yil

43 dona

2021- yil

46 dona

2022- yil

32 dona



Jami faoliyat yuritayotgan

2020- yil

2351 dona

2021- yil

2938 dona

2022- yil

3218 dona